

ZUBTURUM O'SIMLIGIDAN TAYYORLANADIGAN AYRIM DORIVOR VOSITALARNI DAVOLASHDA QO'LLANILISHI

Ruzikulova Nilufar Safarboyevna,
Ganiyevna Nigina Abdukarimovna,
Achilova Manzura Ismailovna.

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Farmakologiya kafedrasи o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada zubturum o'simligining morfologik tuzilishi, kamyoviy tarkibi, undan tayyorlanadigan dorivor vositalar, xalq tabobatida ishlatalishi haqida bayon qilingan. Hozirgi kunda tabiatimizda osayotgan dorivor osimliklardan oqilona foydalanib, ulardan kasalliklarga davo topishimiz mumkin. Zubturum dorivor osimligi juda kop kasalliklarga davo bolib uni tabobatimizda keng qollasak boladi. Bu osimlikning bargi, tomiri va uruglari juda kop kasalliklarga davo boladi. U tabiatimizda osadi va noyob hisoblanadi.

Kalit so'zlar: zubturum, damlama, qaynatma, ateroskleroz, bavosir
Zubturum o'simligi arab va fors shifokorlari tomonidan qadrlangan, ular uni oshqozon-ichak kasalliklari uchun tavsiya qilishgan. Tibet tibbiyotida zubturum yiringni to'xtatadi, deb ishonishgan.

Zubturumdoshlari - Plantaginaceaye oilasiga mansub, kalta va yo`g`on ildizpoyali, poyasiz ko`p yillik o`t o'simlik. Yer ustki qismini ildizoldi barglari va 10-50 sm balandlikdagi gul o`qi tashkil qiladi. Barglari uzun, qanotli bandli, keng tuxumsimon yoki keng ellipsimon, tekis qirrali, 3-9 ta yoysimon asosiy tomirli bo`ladi. Gul o`qi bitta yoki bir nechta. Mayda, ko`rimsiz, to`rt bo`lakli gullari gul o`qi uchidagi boshoqsimon to`pgulga joylashgan. Mevasi-tuxumsimon, ko`p urug`li ko`sakcha. Iyunsentyabr oylarida gullaydi va mevasi yetiladi. Geografik tarqalishi jihatidan Respublikamizning barcha tumanlarida, yo`l yoqalarida, ariq, daryo, buloq bo`ylarida, botqoqliklarda, dalalarda, ekinzorlarda, o`tloqlarda, o`rmon chetlarida va boshqa yerlarda o`sadi. Qo'llaniladigan qismi o'simlikning bargi bilan yer ustki qismi. Barglari kalta bandli qilib qirqib olinadi va tezlikda soya yerda quritiladi. Yer ustki qismi o'simlik gullagan vaqtida yiqiladi va quritilmasidan undan shira olish uchun farmatsevtika zavodlariga yuboriladi.





Onalik tuguni ikki xonali yuqoriga joylashgan. Mevasi - tuxumsimon, ko‘p urug‘li ko‘sakcha. May - iyun oyida gullaydi. Yo‘l yoqalarida, dala va ekinzorlarda, o‘tloq va o‘rmon chetlarida va ariq bo‘ylarida o‘sadi.

Barglaridan foydalanish uchun o‘simlik bargi yil bo‘yi yig‘iladi va salqin erda quritiladi. Quritilgan barglari tuxumsimon, ellipssimon, tekis qirrali, 5 - 9 gacha eysimon tomirlangan, uzunligi 12 sm, eni 8 sm, kalta bandli barglardan iborat, hidsiz, achchiqroq mazasi bor.

Zubturum o’simligi 80 dan ortiq kasalliklarga shifo bo’ladi. Masalan, me’da - ichak kasalliklari (gastrit, enterit, enterokolit) da, ko’kyo’yatlda, bavosirda, saraton kasalligida, so’galda, ich qotishida, ko’z kasalliklarida ishlatiladi.

Quyida zubturum o’simligidan tayyorlangan dorivor vositalarning ayrim retseptlari keltirilgan.

Arteriya qon tomirlari torayishi (ateroskleroz) da zubturum o’simligidan tayyorlanadigan damlamalarning tayyorlanishi:

1. Bargidan bir osh qoshiqg‘i ustiga bir stakan qaynoq sub quyib, 30 daqiqa damlab qo‘yiladi. So‘ngra qultimlab bir soat davomida ichiladi.
2. Barglarini yuvib, sharbati olinadi va unga teng miqdorda asal qo‘shib 20 daqiqa qaynatiladi, kuniga 2-3 osh qoshiqdan aterosklerozda iste’molqilinadi.
3. Maydalangan quruq bargidan 1 osh qoshig‘i ustiga 1 stakan qaynoq suv quyib, 10 daqiqa damlab qo‘yiladi. Kuniga 1 soat ichida qultimlab ichiladi.

Bavosirni davolashda ishlatiladigan damlamalar.

1. Maydalangan bargidan choynakka 4 qoshiq solib, ustiga yarim litr qaynatilgan suv quyib, 4 soat o‘rab damlab qo‘yiladi. Kuniga 4 mahal yari stakandan choy kabi ichiladi.
2. Ildizi va bargidan 50-100 gr olib, bir paqir suvda qaynatiladi. Qaynatmadan 3 stakan ichilsa, bavosirdan qon oqishi to‘xtaydi.
3. Bargi va ildizidan 500 gr olib, yod qo‘shib, 4 l suvda 1 soat qaynatiladi, har kuni 2 mahal 3 piyoladan ichib turilsa, bavosirga shifo bo‘ladi.
4. Zubturum, gazandao‘t, sigirquyuqdan 100 gr dan olib yig‘ma qilinadi. 3 osh qoshiqg‘ini kechqurun termosga solib, ustiga 3 stakan qaynoq suv quyiladi. Ertalab suzib, kuniga 4 mahal ovqatdan 30 daqiqa ilgari 150 ml dan ichiladi.

Tibbiyotda zubturum bargidan tayyorlangan damlamasi bronxit, ko‘k yo’tal, astma va boshqa nafas olish kasalliklari uchun ishlatiladi.



Damlamani ovqatdan 30 minut o'tgach, 2 osh qoshiqdan kuniga 2-3 marta 7-10 kun davomida ichiladi.

Tibbiyotda zubturum bilan bir qatorda o'rtta zubturum - Plantago media L. (bargini ikki tomoni tukli kalta bandli), lantsetsimon zubturum - Plantago lanceolata L. (bargi lantsetsimon) o'simliklari ham ishlatiladi.

Zubturum bargi yo'talga qarshi ishlatiladigan yig`malar-choylar tarkibiga kiradi. Zubturum qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda ko`p ishlatilib kelingan o'simlik.

Abu Ali ibn Sino o`z vaqtida qiyin bitadigan yaralarni, shishlarni (xavfli shishlarni ham), ko`z yallig`lanishi, jigar, buyrak va boshqa kasalliklarni davolagan hamda qon oqishini to`xtatish uchun ishlatgan. Jigar va buyrak kasalliklarida hamda qon tupurishda bemorga zubturum urug`ining qaynatmasini ichirgan, quritilmagan barg yoki urug` shirasidan ichak yarasida huqna qilgan. Bargidan tayyorlangan damlamasi yoki quritilmagan barg shirasi xalq tabobatida nafas yo`llari, ko`z, teri, bezgak, so`zak, yo`g`on ichak yallig`lanishi va turli yuqumli kasalliklarni hamda yaralarni, quydirlagini davolashda, shuningdek, turli qon oqishlarni to`xtatishda qo`llaniladi. Zubturum bargi yana o`pka va me'da raki kasaligini davolash uchun hamda nafas yo`llari kasalliklarida balg`am ko`chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Yaralar, chipqon va kesilgan yerlarni davolash uchun yangi uzib olingan bargi ezib bog`lanadi.

Zubturum urug`idan tayyorlangan qaynatmasi yoki shakarga aralashtirib qovurilgan urug`i bilan qon aralash ich ketish (ayniqsa bolalardagi qon aralash ich ketishda) hamda yo`tal, isitma, qon tupurish va boshqa kasalliklar davolanadi. Zubturumning yangi yig`ilgan bargini ezib teng miqdorda shakar aralashtiriladi va issiq joyda uch hafta saqlanadi. So`ng shu aralashmadan ajralib chiqqan shiradan kuniga 3-4 choy qoshiqda o`pka va me'da raki kasalligini davolash uchun bemorga ichiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- И.Р.Асқаров “Сирли табобат”. Тошкент “Фан ва технологиялар нашриёт-матббаа уйи” 2021. 1084 б.
- Ноибжонова Х.М., Алимбаев С.А., Луфуллин Қ.Л. Зубтурум ўсимлигининг халқ табобатидаг ўрни. Xalq tabobati plus. Илмий, амалий, ижтимоий, тиббий, маърифий журнал. № 3 (4) 2020; 12-13 б.

Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th July, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

3.Madraxhimov A.S. Ibn Sino shifobaxsh o`simliklar haqida "Mehnat", Toshkent 1990 y.

4.L.M.Qurbanova, D.N.Qurbanova. //Zomin shifobaxsh o'simliklarining hususiyatlari. "Journal of Natural Sciences" №3 2021 y.154-157 b.
<http://natscience.jspi.uz>



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

E- CONFERENCE
SERIES